

## PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERINING AMALIYOTGA TATBIQ ETISHNING TASHKILY JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14537421>

**M.M.Sulaymonov**

*Qo'qon DPI matematika kafedrası*

*O'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Pedagogik ta'lim klasterining amaliyotga tatbiq etishning tashkiliy jihatlari, amaliy ahamiyati va nazariy asoslari yoritib berilgan. Muallif o'z qarashlarini G'arb olimlarining fikrlari bilan asoslashga harakat qilishgan. Ta'lim klasteri borasida G'arb olimlarining ilmiy tadqiqotlari tahlil qilingan va ularga muallifning munosabati bildirilgan. Ta'limni klasterlashtirishning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, marketing va pedagogik oqibatlari borasida ilmiy xulosalar bayon qilingan.

### **Kalit so'zlar**

globallashuv jarayoni, pedagogik ta'lim klasteri, mimetik metod, klaster strategiyalari, pedagogik ta'lim klasterining maqsadi, vazifalari, tamoyillari va yo'nalishlari.

### **Pedagogik ta'lim klasteri tamoyillari**

Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining aniq maqsad va vazifalarini belgilash, faoliyat ufqlarini oldindan ko'ra bilish uchun uning qanday tamoyillarga asoslanishi haqida aniq to'xtamlarga kelib olish lozim bo'ladi. Bu borada biz ta'lim mazmuni bilan aloqador quyidagi tamoyillarni tavsiya qilamiz:

► tabiiy aloqadorlik, klaster subyektlari o'rtasidagi hamkorlik, aloqadorlik masalasining tabiiyligi, ya'ni bog'liqlik masalasining hududiy, sohaviy yoki vazifaviy jihatdan obyektivligidir. Tadqiqotchilar klasterlarni sun'iy ravishda shakllantirish mumkin emasligini ta'kidlaydilar. Demak, klaster manfaatdorlikdan kelib chiqqan tabiiy aloqadorlik mahsuli bo'lib, raqobatbardoshlikni ta'minlash, sifat va natijani ko'tarish uning asosiy maqsadi hisoblanadi. Mavjud tabiiy aloqadorlikni kuchaytirish, tarqoq salohiyatni muayyan maqsad sari yo'naltirish, huquqiy asoslarni yaratish va mustahkamlash, axborot hamda innovatsiyalar almashinuvini jadallashtirishning eng qulay va samarador usuli bu klasterlardir. Aloqadorlikda tabiiylikni ta'minlashning shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Jug'rofiy jihatdan yaqinlik;

Ta'lim sifati dinamikasi (progress);

O'qituvchilar salohiyatini mustahkamlash;

OTM va ilmiy tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyatidan oqilona foydalanish;

Ta'lim vositalarining sifatini oshirish;

Umumiy maqsadni belgilay olish va hokazo;

► uzviylik va uzluksizlik, klaster subyektlarining o'zaro bog'liqlikda zanjir hosil qilishi, zanjirni hosil qiluvchi har bir bo'g'inning o'zining aniq vazifalariga ega ekanligi, uzluksizlik zanjirida bo'shliqlarga yo'l qo'yilmasligidir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, uzviylik mazmun, uzluksizlik shakl hodisasi hisoblanadi. YA'ni, ta'lim mazmunining tabiiy ketma-ketligini ta'minlash, bunda bilim oluvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish uzviylikni ta'minlaydi. Uzviylik muayyan ta'lim turi doirasida ham, ta'lim turlariaro ham kuzatilishi mumkin. Uzluksizlik esa ta'lim turlarining o'zaro ketma-ketligida (yoki muayyan fan mazmunining yoritilishida) bo'shliqning bo'lmasligi bilan sodir bo'ladi. Demak, uzviylik va uzluksizlik o'zaro bog'liq, mushtarak va ayni paytda alohida hodisalar bo'lib, ularning ta'minlanishi ta'lim sifatiga bevosita aloqador va ta'lim turlari o'rtasidagi munosabatda bosh masalasi sifatida qaralmog'i lozim. Pedagogik ta'lim klasterining ayni shu hodisa atrofida bahs yuritishi uzviylik va uzluksizlikning muhim tamoyil sifatida qaralishini asoslaydi.

Uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Ta'lim subyektlari o'quv rejalarining bog'liqlik prinsipi asosida ishlab chiqilishi;

Barcha ta'lim turlarida takrorlanuvchi fanlar dasturlari mazmunining quyidan yuqoriga prinsipida ishlab chiqilishi va bunda bo'shliqlarning bo'lmasligiga erishish;

► izchillik, klaster subyektlarining vertikal yagona chiziqda joylashuvi, bunda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich harkatlanish tendensiyasiga amal qilinishidir. Izchillik ham shakl, ham mazmun hodisasi bo'lib, ta'lim shakli va mazmunining ta'lim turlari o'rtasidagi taqsimotini anglatadi. Bu taqsimotda ta'lim turlarining spetsifikasi va maqsadi, davlat ta'lim standartlari, bitiruvchilarga qo'yiladigan talablar inobatga olinishi lozim. Izchillik ta'lim mazmunini o'zlashtirishning asosiy shartlaridan biridir. Izchillik muayyan ta'lim turi doirasida ham, ta'lim turlariaro ham bo'lishi mumkin. Ayni shu ta'lim turlariaro izchillik pedagogik ta'lim klasteriga aloqador hodisa bo'lib, uning

ta'minlanishi bilan bog'liq jarayonlar klaster doirasida hal qilinishi lozim bo'lgan muammolarga mos tushadi. Bu esa izchillikni pedagogik ta'lim klasterining muhim tamoyili sifatida qo'yilishini nazariy jihatdan asoslaydi.

Izchillikni ta'minlash sharti sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Ta'lim va tarbiya bilan bog'liq meyoriy hujjatlar, vositalar, shakllar va texnologiyalarning quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab harakatlanish prinsipida ishlab chiqilishi;

Ta'lim va tarbiya bilan bog'liq meyoriy hujjatlar, vositalar, shakllar va texnologiyalarning ishlab chiqilishida tarbiyalanuvi, o'quvchi va talabalarning yosh va fiziologik xususiyatlarining inobatga olinishi;

► vorisiylik, klasterning avlodlar almashinuvidagi roli, tyutorlik faoliyati, pedagogik ta'limni klasterlashtirish natijasida subyektlarning malakali pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyojining muntazam qondirilishiga erishishdir. Vorisiylik jamiyatda o'qituvchilik kasbi mavqeyining oshishi bilan bog'liq bo'lga jarayondir. Pedagogik ta'lim klasterining vorisiylik tamoyili asosidagi vazifalaridan biri o'qituvchilarning ijtimoiy himoyasi borasidagi muammolarni tadqiq etish, jamiyatda o'qituvchining hurmatini oshirish bilan bog'liq muammolarni kun tartibiga qo'yish bilan bog'liq.

Vorisiylikni ta'minlash sharti sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Jamiyatda pedagoglik kasbi maqomi va mavqeyini oshirish borasida targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish;

Iqtidorli o'quvchilarni o'qituvchi-pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash ishlarini yo'lga qo'yish;

Oqilona seleksiya ishlarini yo'lga qo'yish;

► zamonaviylik, sohaga oid zamonaviy ilm-fan yutuqlarini tizimga joriy qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Zamonaviylik tamoyilini ikki yo'nalishda: birinchisi, ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviylashtirish (ta'lim, fan va ishlab chiqarishga zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joriy qilish bilan bog'liq muammolar), ikkinchisi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning (bitiruvchilarning) zamonaviy talablarga javob berishi ma'nosida tushunish mumkin. Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviylashtirmasdan raqobatbardosh, sifatli mahsulot tayyorlash mumkin emas. Bu esa ta'lim mazmuniga, ta'lim jarayoni va vositalariga, texnologiyalariga innovatsion yondashishni talab qiladi. Innovatsiyalarsiz klasterning mavjud bo'lmasligi esa zamonaviylikni pedagogik ta'lim klasterining tamoyili sifatida ilgari surishni nazariy jihatdan asoslaydi.

Zamonviylikni ta'minlash sharti sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Zamonviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik ta'lim jarayoniga tatbiqini muntazam yangilab borish;

Zamonaviy ilm-fan yutuqlarini pedagogik ta'lim jarayoniga singdirishning muntazam ishlovchi mexanizmini yaratish;

Ta'lim mazmuni va shaklini zamonga moslashtirish;

Bitiruvchilarga qo'yiladigan davlat talablarini rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarga muvofiqlashtirish.

► yo'naltirilganlik, klaster doirasida amalga oshirilayotgan har bir faoliyat turining aniq maqsadga yo'naltirilganligi, kutilayotgan natijalarning oldindan chamalash va baholash imkoniyatining mavjudligidir. Pedagogik ta'lim klasteri loyiha yo'nalishlarini va har bir yo'nalishda aniq maqsadga qaratilgan va ilmiy asoslangan bir nechta loyihalarning amaliyotga tatbiq qilinishini taqazo qiladi. Ilmiy tadqiqot, axborot-tahliliy, ilmiy-uslubiy va tajriba-innovatsion kabi ta'lim sohasining barcha jihatlari loyiha yo'nalishlari sifatida olinishi va muayyan loyiha shu yo'nalishlarning alohida qirrasida sifat va samaradorlikka xizmat qilishi maqsadga muvofiq. Bu taxlitda ishlash pedagogik ta'lim klasteri tushunchasini va shu yo'nalishdagi faoliyatni yanada aniqlashtiradi, ixchamlashtiradi va aniq maqsadga yo'naltiradi. Bu jihatlari bilan yo'naltirilganlik pedagogik ta'lim klasterining alohida tamoyili sifatidagi ilmiy taklifni asosli ekanligini ko'rsatadi.

Yo'naltirilganlik tamoyilini ta'minlash sharti sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Maqsadning aniq belgilanishi;

Har bir faoliyatning maqsad sari yo'naltirilishi;

Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy mezon sifatida belgilanishi;

Raqobat tushunchasiga mahalliy yoki milliy nuqtai nazardan emas, balki global nuqtai nazardan yondashish;

Faoliyat natijadorligini oldindan chamalash va baholash ishlarining metodologiyasini ishlab chiqish;

Loyiha yo'nalishlari va unga muvofiq aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda natijasi oldindan kafolatlangan loyihalarning taqdim etilishi.

► maqsadning umumiyliigi, klaster subyektlarining xususiy maqsadlaridan tashqari global aspektdagi yagona maqsad atrofida birlashuvdir. Klasterda barcha subyektlarning faoliyatiga aloqador umumiy maqsadni topa bilish jarayonning muhim omillardan biri hisoblanadi. Umumiy maqsad strategiya bilan aloqador bo'lib, uzoqni ko'zlangan rejani nazarda tutadi. Bu subyektga bevosita daxldor bo'lmasligi mumkin, ammo bilvosita aloqador bo'lib, klasterning muvaffaqiyati o'sha subyektning faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Umumiy maqsadda

klasterni tashkil qiluvchi barcha subyektlarning manfaatlari aks etishi lozim. Aks holda klaster to'laqonli bo'lmaydi. Bu esa klaster zanjiridagi uzilish bo'lib, tizimning nuqsonli ishlashi yoki umuman ishlamasligiga sabab bo'ladi. Ayni shu jihatlari bilan maqsadning umumiyliigi pedagogik ta'lim klasterining muhim tamoyili sifatidagi ilgari surilgan g'oyaning to'g'ri ekanligini asoslaydi.

Maqsadning umumiyliigi tamoyilini ta'minlash sharti sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Xususiy manfaat umumiy maqsadga bevosita bog'liqligini anglash;

Strategik yo'nalishlar va rejalarni belgilashda o'z qobig'idan chiqa olish;

Uzoqni ko'zlab ish ko'rish (uzoq yillik istiqbol rejalarning mavjudligi);

Umumiy maqsadni belgilashda klasterni tashkil qiluvchi har bir subyektning "ovozi" inobatga olinganligi;

► manfaatlarning xususiyliigi, pedagogik ta'lim klasteri modelida har bir subyektning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo'lishidir. Subyektlarining xususiy manfaatlari pirovardida umumiy manfaat uchun xizmat qiladi. Manfaaddorliksiz pedagogik ta'lim klasteri mavjud bo'la olmaydi. Iqtisodiy klasterlar ham aslida foydaning ortishi va raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsadida paydo bo'lgan. Ularda foyda moddiy ko'rinishlarda namoyon bo'lsa, pedagogik ta'lim klasterida bu ijtimoiy, ya'ni kadrlar salohiyatini kuchaytirish va ta'lim sifatini oshirish borasida ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy manfaatdorlik ham pirovardida sohaning moddiy manfaatdorligiga xizmat qiladi, albatta. Umuman, kadrlar salohiyatini ko'tarish va moddiy manfaatdorlikni oshirish masalalari bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lgan tushunchalar bo'lib, har qanday klaster doirasida ular parallel ravishda olib boriladigan jarayonlar sifatida qaraladi. Tabiiy aloqadorlik tamoyili ayni paytdagi eng oqilona xususiy manfaatdorlik ta'minlangandagina yuz beradi. Demak, xususiy manfaatlar aloqaning tabiiyligini ta'minlaydi va shu o'rinda bu ikki tamoyil o'zaro chambarchas bog'liqlikni yuzaga keltiradi. Bu ikki tamoyildan birining kuchayishi o'z-o'zidan ikkinchisining kuchayishiga (yoki aksincha) xizmat qiladi.

Manfaatlar xususiyliigi tamoyilini ta'minlash sharti sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Integratsiyalashuvda manfaatdorlik bo'lishining shartligi;

Xususiy manfaat umumiy maqsaddan chekinishga sabab bo'lmasligi;

Kadrlar salohiyatining oshishi va moddiy manfaatdorlikning kuchayishi o'rtasidagi tenglik;

Klaster doirasida subyektlarning o'z manfaatini o'z-galar manfaati bilan teng ko'rish.



► o‘zaro nazorat, klaster modeli doirasida birlashgan ta‘lim subyektlarining o‘zaro yagona tizimni hosil qilishi va bu tizimning nuqsonsiz ishlashidan har bir subyektning manfaatdor ekanligi, ma‘lum subyektida yo‘l qo‘yilgan xato yoki kamchilik boshqa subyektlarning faoliyat samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatishi, subyektlar faoliyatini o‘zaro baholash tizimining yo‘lga qo‘yilishidir. Shu o‘rinda pedagogik ta‘lim klasterining muayyan tizim sifatidagi hodisa ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi va u o‘zaro nazorat tamoyilini taqazo qiladi. Tizimning qanchalik mukammal ekanligi o‘zar nazoratning shu darajada kuchli bo‘lishini ta‘minlaydi. Bunda subyektlar faoliyatini baholashning umumiy maqsad va xususiy manfaatdorlikdan kelib chiquvchi obyektiv me‘zonlarining ishlab chiqilishi muhimdir.

O‘zaro nazorat tamoyilini ta‘minlash sharti sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Yagona tizim sifatida birlashish;

Tizim prinsipida ishlash;

Xususiy manfaatdorlik boshqa subyektlar faoliyatining sifatiga ham bog‘liq ekanligini tushunish;

O‘zaro ta‘sir qilish mexanizmlarining ishlab chiqilganligi;

Yuqoridagi tamoyillardan kelib chiqqan holda pedagogik ta‘lim klasterini yaratishda bir nechta muhim yo‘nalishlarni belgilab olish mumkin bo‘ladi. Ular quyidagilardan iborat: birinchidan, klaster subyektlari o‘rtasida umumiy maqsadning mavjudligi; ikkinchidan, subyektlarning birgalikdagi faoliyatining huquqiy asosga egaligi; uchinchidan, klaster doirasida birlashgan subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli munosabatlar tizimi; to‘rtinchidan, boshqaruv mexanizmini muvofiqlashtirilganligi; beshinchidan, subyektlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning umumiy maqsaddan chekinilmasligi; oltinchidan, subyektlar o‘rtasida o‘zaro nazorat tamoyiliga amal qilish.

Pedagogik ta‘lim klasterining yo‘nalishlari

Pedagogik ta‘lim klasterini quyidagi yo‘nalishlarda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq: 1) ta‘lim yo‘nalishi; 2) ta‘lim vositalari yo‘nalishi; 3) ta‘lim va fan yo‘nalishi; 4) ta‘lim va ishlab chiqarish yo‘nalishi; 5) ta‘limni boshqarish yo‘nalishi.

Yuqoridagi tasnifda pedagogik ta‘lim sohasi faoliyati to‘laqonli qamrab olingan bo‘lib, har bir yo‘nalish o‘z ichida tarmoqlanadi. Bu yo‘nalish va tarmoqlar mazmuni ta‘lim turlari o‘rtasidagi ta‘limiy, ilmiy, uslubiy, ta‘lim vositalari va boshqaruv bilan bog‘liq hamkorlikning barcha shakl, usul va texnologiyalarini o‘zida jamlaydi.

Pedagogik ta'lim klasteri yo'nalishlarining mazmuni quyidagilardan iborat:

Ta'lim yo'nalishi:

Mavjud muammolarni aniqlash, tasniflash va bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

O'quv-uslubiy salohiyatning vertikal va gorizontol harakatlanish mexanizmini ishlab chiqish;

Dars mashg'ulotlari sifatini boshqarish va nazorat qilish;

O'quv-uslubiy samaradorlikni aniqlashning sodda va eng maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish va jori qilish;

O'quv-uslubiy sohada ta'lim turlariaro tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish.

Ta'lim vositalari yo'nalishi:

O'quv reja va fan dasturlarini takomillashtirish;

Darslik, o'quv qo'llanmalarining mazmun-mundariyasi boyitish va saviyasini ko'tarish;

Dars mashg'ulotining yordamchi adabiyotlari va didaktik ta'minotini takomillashtirish;

Axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishga erishish.

Ta'lim va fan yo'nalishi:

Ta'lim va fan o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish;

Ilmiy sohada ta'lim turlariaro tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish.

OTM va umumta'lim maktablari (maktabgacha ta'lim muassasalari) o'qituvchilarining hamkorligida binar ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish (ilmiy ishlanmalar OTM professor-o'qituvchilari tomonidan, uning amaliyotga tatbiq qilinishi umumta'lim maktabi o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi);

Ilmiy-pedagogik salohiyatning ehtiyojga qarab oqishini ta'minlaydigan mexanizmni ishlab chiqish;

Ta'lim va ishlab chiqarish yo'nalishi:

Ta'lim va ishlab chiqarish yo'nalishi o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish;

OTM va ishlab chiqarish xodimlari hamkorligida binar ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish (ilmiy ishlanmalar OTM professor-o'qituvchilari tomonidan, uning amaliyotga tatbiq qilinishi ishlab chiqarish xodimlari tomonidan amalga oshiriladi);

Nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish;

Taraqqiyot shiddatini inobatga olgan holda ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish;

Ta'limni boshqarish yo'nalishi:

Ta'limni innovatsion boshqarish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;

Barcha ta'lim turlari manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi hududiy boshqaruv tizimini yaratish;

Boshqaruvga innovatsion usul va vositalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish.

Barcha ishtirokchilarning o'zaro qo'llab-quvvatlanishini va nazorat qilinishini ta'minlaydigan o'zaro ta'sir va ochiqlik klasterning samaradorligiga xizmat qiladi. Bir-biriga yaqinlik, ichki aloqalar, doimiy shaxsiy aloqalar va umumiy ochiqlik o'zaro aloqani hamda axborot uzatishni osonlashtiradi. Klasterlashtirish bilan bog'liq masalalar ta'lim sohasidagi yangiliklar, yangi tarkibiy qismlar va o'quv qo'llanmalarining mavjudligi, ta'lim jarayonini sinab ko'rish, ta'lim tizimining rivojlanishidagi yangi tendensiyalarni o'rganishni taqazo qiladi.

#### CONCLUSION - XULOSA

Amalga oshiriladigan barcha ishlar klaster ishtirokchilarning boshlang'ich, professional, yuqori professional va kasbiy tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, ilmiy va ta'lim-tarbiya klasterini ro'yobga chiqarishga qaratilgan bo'lmog'i lozim. Shu bilan birga klaster doirasidagi ta'lim muassasalari, klasterning tarkibiy qismi bo'lgan boshqa turdagi tashkilotlar umumiy maqsadga ishlashlari zarur. O'qitishda qo'shimcha va masofaviy ta'lim ham nazarda tutilishi lozim. Shuningdek, klasterda respublikaning qator ilmiy-tadqiqot institutlari, sanoat korxonalarini va boshqa muassasalarini ham faol jalb etish uchun zarur sharoitlar yaratishga alohida e'tibor berish muhimdir.

Buning natijasida hududda:

› birinchidan, malakali pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj sifatli qondiriladi (ijtimoiy oqibat);

› ikkinchidan, samarali ta'lim xizmatlari bozori shakllantiriladi (iqtisodiy oqibat);

› uchinchidan, innovatsion ta'lim texnologiyalarini, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy ishlarida yangi imkoniyatlarni tezkor ommalashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi (marketing sohasidagi oqibat);

› to'rtinchidan, ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yishning, shuningdek, ta'lim tizimini boshqarishni yangi tashkiliy shakliga o'tish bilan bog'liq meyoriy-huquqiy asoslar yaratiladi (huquqiy oqibat);

› beshinchidan, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini klaster subyektlari bilan hamkorlikda loyihalash yo'lga qo'yiladi (pedagogik oqibat).

Shunday qilib, ta'limga klaster yondashuvni tatbiq qilish ta'lim tizimidagi uzluksizlik va aloqani, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini mustahkamlaydi. Buni ta'limga nisbatan innovatsiya sifatida qarash va



samaradorligini chamalash hamda amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy jamoatchilikning oldidagi muhim muammolardan sanaladi. Klaster yondashuvi davlat ta'lim siyosatining mazmunini tubdan o'zgartirib, subyektlar munosabatlariga rivojlanish va samaradorlik mezonlari bilan qarash imkoni beradi. Natijada klaster ta'limga nisbatan innovatsion yondashuv sifatida hududdagi inson resurslari, tashkilotlar va texnologiyalarni birlashtiruvchi kuchli mexanizmni yuzaga keltiradi.

## REFERENCES - ADABIYOTLAR

1. M.Porter, Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980, -P.79
2. Shamova T.I. Klasterniy podxod k razvitiyu obrazovatelnix sistem// Vzaimodeystviya obrazovatelnix uchrejdeniy i institutov sotsiuma v obespechenii effektivnosti, dostupnosti i kachestva obrazovaniya regiona: Materiali 10 Mejdunarodnogo obrazovatel'nogo foruma (Belgorod. 24-26 okt. 2006 g.): v2 ch. / BelGU, MPGU, MANPO; otv. red. T.M. Davidenko, T.I. Shamova. Belgorod: Izdatelstvo BelGU, 2006. Ch. 1. C. 24-29.
3. Bupalova L. Chto takoye klaster? URL: <http://siok.rightside.ru/siok/2009-12-01-06-24-41>. Zagl. s ekrana.
4. Aktualniye problemi biznes-obrazovaniya : materialy XIV Mejdunar. nauch.-praktich. konf., 16-17 apr. 2015 g., Minsk / Bel. gos. un-t, In-t biznesa i menedjmenta texnologiy. - Minsk : Natsionalnaya biblioteka Belarusi, 2015. - 298-301 S.
5. Krivix S.V. Klasterniy podxod v pfessionalnom obrazovanii / S.V.Krivix// akademiya professionalnogo obrazovaniya. -2014. -№3-4. -s.7-13.
6. Osechkina L.I. Klasterniy podxod kak usloviye povisheniya effektivnosti deyatel'nosti vuza / L.I.Osechkina// Vissheye obrazovaniye v Rossii. -2012. -№8-9. -s.73-76.
7. Sidorin A.V. Sistema formirovaniya kadrovogo potentsiala visokotexnologichnix otrasley promishlennosti na osnove klasternogo podxoda / A.V.Sidorin // Internet- jurnal «Naukovedeniye». -2012. -№4. -S.1-7.
8. Frolovskaya M.N. Stanovleniye professionalnogo obraza mira pedagoga na osnove klasternogo podxoda / M.N. Frolovskaya // Innovatsionniye texnologii v nauke i obrazovanii: sb. statey II PNMK, Penza, 23 yanv. 2017 g. / MSNS «Nauka i Prosvesheniye»; pod obsh.red. G.Y.Gulyayeva (i dr.). - Penza, 2017. -S.210-212.

9. Davidova N.N., Igoshev B.M. i dr. *Obrazovatelnyy klaster kak sistemoobrazuyushiy komponent regionalnoy modeli neprerivnogo pedagogicheskogo obrazovaniya, Pedagogicheskoye obrazovaniye v Rossii*, 2014. № 10, str.75

Sharay N., *Klasterniy podxod v integratsii, «UG Moskva»*, №15 ot 14 aprelya 2015 goda.

10. АБДУНАЗАРОВА, ДИЛФУЗА ТУХТАСИНОВНА. "МАНЗУРА СОБИРОВНА ПАЙЗИМАТОВА, and МИРСАИД МУХИДДИН УГЛИ СУЛАЙМОНОВ." "ПРОБЛЕМА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТ." *Молодежь и XXI век-2015* (2015).

11. Sulaymonov, M. M., and M. M. Otaboev. "SOME SECOND ORDER DIFFERENTIAL EQUATIONS FUNCTIONALLY INVARIANT SOLUTIONS." *Open Access Repository* 8.12 (2022): 584-591.

12. Yigitalievich, Akbarov Ummatali, and Sulaimonov Mirsaid. "SYSTEM OF EQUATIONS OF COUPLED DYNAMIC PROBLEMS OF A VISCOELASTIC SHELL IN A TEMPERATURE FIELD." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 298-303.

13. Sulaymonov, Mirsaid Muxiddin O'G'Li. "GEOGEBRA DASTURI VOSITASIDA PLANIMETRIYA MAVZULARIDA MA'RUZA MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISH." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2.6 (2022): 35-40.

14. Пайзиматова, Манзура Собировна. "Абдуназарова Дилфуза Тухтасиновна, Сулаймонов Мирсаид Мухиддин угли теория и методика обучения математике как самостоятельная научная дисциплина Сборник научных статей 3-й Международной молодежной научной конференции: в 2-х томах." *Том 1: 3-8*.

15. Muxiddin o'g'li, Sulaymonov Mirsaid. "Kasr tartibli differensial operator ishtirok etgan integro-differensial tenglamalar uchun integral shartli masalalar." *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan* 1.8 (2023): 155-160.

16. АБДУНАЗАРОВА, ДИЛФУЗА ТУХТАСИНОВНА, МАНЗУРА СОБИРОВНА ПАЙЗИМАТОВА, and МИРСАИД МУХИДДИН УГЛИ СУЛАЙМОНОВ. "ПРОБЛЕМА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТ." *Молодежь и XXI век-2015*. 2015.